



IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.1 № 1

2024

**“IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA
ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR”**
ilmiy-metodik jurnali

Bosh muharrir:

Boltaeva Mohichehra

Tahrir hay'ati:

07.00.00 - Tarix fanlari

- Ergasheva Yulduz — Tarix fanlari doktori, professor
- Zununova Gulchehra — Tarix fanlari doktori, professor
- Kurbonova Zemfira — Tarix fanlari doktori, professor
- Askar Jumashayev — Tarix fanlari doktori, professor
- Nurjanov Sabit Uzakbayevich — Tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Xaydarov G'ayratbek Mirzapulatovich — Tarix fanlari doktori, dotsent
- Seydametova Gulnara Utarbayeva — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent
- Nasirov Bunyod — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent

09.00.00 - Falsafa fanlari

- Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Saitkasimov Akbar Isaxanovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Musaev Odil Raxmatovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Suvanov Ilxom Abduxalilovich — Falsafa fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Alima Berdimuratova — Falsafa fanlari doktori, professor
- Kabulniyazova Gulchehra Tashpulatovna — Falsafa fanlari doktori, professor
- Siddikov Ilyos — Falsafa fanlari doktori, dotsent

10.00.00 - Filologiya fanlari

- Zakirova Soxiba — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Ganiyeva Shodiya Azizovna — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Soatova Nodira — Filologiya fanlari doktori, professor
- Kobilova Zeboxon Bakirovna — Filologiya fanlari doktori, professor

13.00.00 - Pedagogika fanlari

- Jo'rayev Risbay Xaydarovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turgunoy Egamberdiyeva — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Ibragimov Xolboy Ibragimovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turakulov Olim Xolbutayevich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Abdullayeva Barno Sayfutdinovna — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Ismoilov Temur Islamovich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Umid Negmatovich Xo'jamqulov — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Isakulova Nilufar — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Jumanëzova Muxayyo Tojiyevna — Pedagogika fanlari doktori, dotsent

19.00.00 - Psixologiya fanlari

- Abdullayeva Dilbar — Psixologiya fanlari doktori, professor
- Atabayeva Nargis Batirovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent,
- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
- Umarov Baxriddin Mengboevich — Psixologiya fanlari doktori, professor

- Shamshetova Anjima Karamaddinovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent
- Norbekova Barno — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent
- Abdumajidova Dildora — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

23.00.00 - Siyosiy fanlar

- Jo'raqulov Furqat Norjigitovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Axmedov Husnidin Alikulovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Musaev Mansur Tursunpulatovich — Siyosiy fanlar doktori, katta ilmiy xodim Ravshanov
- Fazluddin Ravshanovich — Siyosiy fanlar doktori, dotsent

22.00.00 - Sotsiologiya fanlari

- Xolbekov Abdug'ani Jumanazarovich — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Sodiqova Shoxida Marxaboyevna — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Gabdrahmanova Gulnara Faatevna — Sh. Marjani nomidagi Tarix instituti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Kamalova Xatira Sabirovna — Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

"Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar" - bu ilmiy-metodik jurnal bo'lib, O'zbekistonda 2024-yildan beri nashr etilmoqda. Jurnal har chorakda bir marta, yiliga 4 marta chop etiladi. Ushbu jarayonga talabga ko'ra muassislar va tahrir hayati bilan birlgilikda kelishgan xolda o'zgartirish kiritish mumkin.

MUNDARIJA

07.00.00 - Tarix.....	5
ОБРАЗОВАНИЕ КАРАКАЛПАСКОЙ АВТОНОМНОЙ ОБЛАСТИ: СТРАНИЦЫ ИСТОРИИ.....	5
Джумашев Аскар Мамбетович.....	5
07.00.00 - Tarix.....	10
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR.....	10
Abdullaev Ulug'bek Saydanovich.....	10
Shamshiddinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li.....	10
09.00.00 - Falsafa.....	15
FALSAFIY ANTROPOLOGIYA MUSTAQIL BILIM SOHASI SIFATIDA.....	15
Qabulniyazova Gulchexra.....	15
09.00.00 - Falsafa.....	21
ISLOM FALSAFASIDA GNOSEOLOGIK FAOLIYATNI OLIB BORISHGA DOIR QARASHLARNING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI.....	21
Siddiqov Ilyosjon Baxromovich.....	21
13.00.00 - Pedagogika.....	33
РАССМОТРЕНЫ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ СПЕЦИАЛЬНОСТИ “ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ” К УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	33
Мухаммадиев Комил Бурхонович.....	33
13.00.00 - Pedagogika.....	49
SO'ROVNOMAGA ASOSLANGAN TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	49
Isakulova Nilufar Janikulovna.....	49
10.00.00 - Filologiya.....	57
SHE'RIYATDA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK.....	57
Soatova Nodira Isomitdinovna.....	57
10.00.00 - Filologiya.....	65
DETEKTIV QISSA YARATISHDA USLUBIY O'ZIGA XOSLIK.....	65
Turopova Parizod Shavkat qizi.....	65
10.00.00 - Filologiya.....	71
XORAZM MATBUOTI TARIXIDAN.....	71
Iqboloy Adizova Istamovna.....	71
19.00.00 - Psixologiya.....	82
O'SMIRLIK DAVRIDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	82
O'tamurodov Samandar G'ulom o'g'li.....	82
19.00.00 - Psixologiya.....	87
OILADA OTA-ONA MUNOSABATLARINING BOLALARDA MILLIY FAZILATLARNI SHAKLLANISHIGA TA'SIRI.....	87
Norbekova Barno Shavkatovna.....	87

19.00.00 - Psixologiya.....	92
SPORT PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING MUAMMOLARI: KONTENT	
TAHLILI.....	92
Abdullayev Akobr Shokir o‘g‘li.....	92

19.00.00 - Psixologiya

**OILADA OTA-ONA MUNOSABATLARINING BOLALARDА MILLIY
FAZILATLARNI SHAKLLANISHIGA TA'SIRI**

Norbekova Barno Shavkatovna

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali(PhD) dotsent

Annotatsiya. Maqolada oilada bola shaxsini shakllantirish, ota-onalar bilan farzandlarning o'zaro munosabatlari muammolarini o'rganish, oilada bolalarda milliy fazilatlarni shakllantirish, etnik identiklik tushunchasi va uning mazmuni va etnik identiklikni shakllanishining shart-sharoitlari va omillari haqida so'z boradi..

Kalit so'zlar: etnik birlik, munosabat, etnik identiklik, ota-onalar, bola shaxsi

THE IMPACT OF PARENT-CHILD RELATIONSHIPS ON THE FORMATION OF NATIONAL VIRTUES IN CHILDREN

Norbekova Barno Shavkatovna

Associate Professor at Jizzakh Branch of Uzbekistan National University (PhD)

Abstract. This article explores the problems of shaping the child's personality in the family, the interaction between parents and children, the formation of national virtues in children within the family, the concept of ethnic identity and its content, as well as the conditions and factors influencing the formation of ethnic identity.
Keywords: ethnic unity, relationships, ethnic identity, parents, child's personality.

ВОЗДЕЙСТВИЕ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДОБРОДЕТЕЛЕЙ У ДЕТЕЙ

Норбекова Барно Шавкатовна

Доцент Джиззакского филиала Узбекского национального университета (PhD)

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы формирования личности ребенка в семье, взаимные отношения между родителями и детьми, а также формирование национальных добродетелей у детей в семье. Обсуждаются понятие этнической идентичности, ее содержание, а также условия и факторы, влияющие на формирование этнической идентичности.

Ключевые слова: этническое единство, отношения, этническая идентичность, родители, личность ребенка.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida har qaysi mustaqil davlat, har bir xalq o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlari va an’analarini asrab avaylash masalasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Ma’lumki, oilada va bola shaxsini shakllantirish, oilaviy munosabatlar, ota-onalar bilan farzandlarning o‘zaro munosabatlari muammolarini o‘rganish doimo insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik diqqat e’tiborida bo‘lgan. Bu borada o‘zining bolajonligi va oilaparvarligi bilan farqlanib turuvchi o‘zbek xalqining urf-odatlari va milliy (fenomenligi) etnik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha respublikamizning oilashunos olimlari o‘zlarining munosib hissalarini qo’shganlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlii. Etnoslarning ko‘p qirrali hayotini o‘rganishda ularning doimiy turmush tarzini bevosita kuzatish asosida joylarning o‘zida to‘plangan materiallar bosh manba hisoblanadi. Bu borada uzoq davr bir joyda yashab, kuzatishlar olib borgan, etnograf olimlardan L.Morgan, N.N.Mikluxo Maklay, V.G.Bogorazlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga molik. Afsuski, stasionar uslub deb nomlangan bunday tadqiqot usullaridan hozirgi sharoitda kam foydalilanadi [1].

Nemis tadqiqotchilari M.Losarus va tilshunos G.Shteyntallar 1859 yilda «Xalq psixologiyasi va lingvistikasi jurnali»ni chop eta boshladilar va birinchi marta «Xalq psixologiyasi», degan terminni muomalaga kiritib, haqli ravishda etnopixologiya fanining asoschilari bo‘lib qolishdi [2].

G‘.G‘oziyev ota-bobolarimizdan xalqimizga meros qolgan saxiylik, mehmondo‘stlik, rostgo‘ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik fazilatlari milliy xarakterning eng muhim jihatni hisoblanadi. Ushbu xislatlarni ta’lim-tarbiya jarayonida yosh avlod ongida shakllantirish, ular ruhiyatini xalq durdonalari bilan boyitish, milliy qadriyatlarning oqilona tadbirlariga alohida diqqat-e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq [3].

Respublikada bevosita o‘zbek oilalarida ota-onsa va farzand, oilada aka-uka, opa-singillarning o‘zaro munosabatlari psixologiyasiga oid bir qancha ilmiy ishlar va o‘quv qo‘llanmalari G‘.B.Shoumarov va boshqa psixologlari tomonidan ham amalga oshirilgan. Shu bilan birga respublika psixolog olimlari orasida ilk bor o‘zbek oilasida bir necha avlodlararo va ikki avlod: ota-onsa va farzandlar o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos etnopsixologik xususiyatlari o‘rganilgan va ko‘p farzandlik oilaning katta yoshli a’zolariga hurmat, oilada erkak mavqeい, muhabbat va oila kabilarning bola shaxsiga ta’siri yoritib berilgan [4].

V.M.Karimova, ota-onalarga xos xususiyatlarni ularning farzandlariga ham xuddi shu sifatlarni shakllanishi imkonini berishligi haqida to‘xtalib, quyidagi fikrlarni bildiradi. Masalan: Ota-onsa o‘z oilasida oilaviy an’analarni muntazam ravishda tashkil qilib borishi bolalar shaxsining shakllanishida, oilaparvarlik sifatlarining rivojlanishida muhim asos bo‘ladi. Mana shu tadbirlarda bola ishtirokining ta’milanishi esa, unda oila a’zolariga bo‘lgan hurmat, hamdardlik va hamfikrlilik kabi sifatlarni, yoshlikdan tashabbuskorlik, mustaqil ish yuritish ko‘nikmasini, uning insonlarga nisbatan muomala malakalarini shakllantirishga yordam beradi, deb ta’kidlaydi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumki, inson - ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. U hayoti davomida o‘z ijtimoiyligini muntazam ravishda ko‘rsatib boradi. Milliy xislatlarni shakllantirish tarbiyasi esa ana shu ijtimoiylikni ko‘rsatishning zaruriy qonuniyatlarini yoshlar tafakkuriga singdirish usuli hisoblanadi.

Bolalar va o‘smirlarda milliy xususiyatlarni shakllantirilishi ularda quyidagi xususiyat va his-tuyg‘ularning tarbiyalanishiga olib keladi: mulohazakorlik, insoniylik, g‘amxo‘rlik, mehribonlik, irodalilik, qat’iyatlilik, chidam, bardosh, e’tibor, e’zoz, izzat, tavoze, hurmat, tinchliksevarlik, ochiqlik, yaxshi kayfiyat, keng dunyoqarash, madaniyatlar, xalqlar, urf-odatlari, dinlar va e’tiqodlar tarixini bilish va hurmatlash, millatparvarlik, sabr, kechirimli bo‘lish, muloqot madaniyati egallash, muomalali bo‘lish, toqat, muruvvatli bo‘lish, saxiylik,

mehmonnavozlik, o‘z so‘zining ustida turish, ma’naviy-ruhiy barkamollik, bilimdonlik, dardkashlik, birodarlik, do‘stlik, onglilik v.b. Shuningdek, milliylik ruhi yoshlarda quyidagi salbiy his-tuyg‘ular va kechinmalardan o‘zini asrash qobiliyatini shakllantiradi: ikkiyuzlamachilik, qat’iyatsizlik, qahr, g‘azab, jizzakilik, o‘zini birovlardan ustun qo‘yish, o‘ziga oro berish, birovlarni mensimaslik, kek, qo‘pollik, insonlarni bir-biriga qarshi qo‘yish, e’tiborsizlik, behurmatsizlik, guruhbozlik, ayirmakashlik, bilimsizlik, ongsizlik, bezbetlik, manmanlik, xudbinlik, millatchilik, xiyonat, ma’naviy ko‘rlik, manqurtlik, yakkahokimlik, avtoritarizm, egoistlik, kibr, janjalkashlik, surbetlik, o‘z manfaatlarini ustun quyish, jamoatchilikdan qochish, tarbisizlik, qusurlik, hirs, aqidaparastlik, bo‘zg‘unchilik v.b.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki, oilada bolalar va o‘smirlarda milliy fazilatlarni shakllantirish jarayonining mazmuni har tomonlama murakkab va tarmoqlashgan, serqirra mavzular va jihatlar mujassamligidan iborat jarayon bo‘lmog‘i, uning maqsadi - milliy tafakkurli komil va yetuk, mustaqil shaxsni tarbiyalashga qaratilmog‘i lozim.

Shunday qilib, bolalar va o‘smirlarda milliy xususiyatlarni shakllantirish - murakkab jarayon bo‘lib, ular tengdoshlari va atrofdagi kishilar bilan muloqotga kirishish asosida hamda boshqa kishilar bilan o‘zaro munosabatga kirishishi va qarashlari bilan bog‘liq ijtimoiy voqelik ta’sirida amalga oshadi.

Tahlil va natijalar. Tashkil etiluvchi tarbiyaviy faoliyat natijasida o‘smirlarda quyidagi tarzdagi milliy yo‘nalganlikni tarkib toptirish mumkin:

- 1) insoniylik - shaxslararo munosabatlarni insoniylashtirish, insonning ichki olamiga e’tibor qaratish;
- 2) refleksivlik - shaxsiy o‘ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklarini anglash, ularni milliy xulq-atvor bilan bog‘liqlikda yo‘lga qo‘yish;
- 3) javobgarlik - qarorlar qabul qilish vaziyatida ichki kuchlarning namoyon bo‘lishiga asoslanuvchi shaxsiy talablar tizimiga egalik;
- 4) moslashuvchanlik - vaziyat, sharoit bilan bog‘liqlikda to‘g‘ri qarorlar qabul qila olish;
- 5) o‘z-o‘ziga ishonch - o‘zining kuch va imkoniyatlarini adekvat baholay olish;
- 6) o‘z-o‘zini boshqara olish - o‘zining his-tuyg‘ularini boshqara olish, o‘z xulqini nazorat qila olish;
- 7) persepsiya - kishilardagi turli xil xususiyatlarni sezal olish va aniqlay olish, ularning ichki dunyosini anglash ko‘nikmasi;
- 8) empatiya - boshqa kishilarning muammolariga hamdard bo‘lish, voqelikni emosional baholay olish.

Ma’lumki, etnik identiklik – milliy urf-odatlari, his-tuyg‘ulari, qarashlari, g‘oyalari, e’tiqodlari, millat va elatning ruhiyati, uning ongida saqlanib kelayotgan an’analalar, rasm-rusumlar, aqidalar, udumlar, faoliyat stereotiplari, fe‘lidagi bag‘rikenglik, hotamtoylilik, mehmondo‘stlik, o‘zaro hamkorlikga moyillik, g‘am-qayg‘u paytlarida nochor kimsalarga hamdardlik bildirish, elkadoshlik til va dil birligi qobiliyatini anglatadi. Ushbu ta’rifdan ko‘rinadiki, milliy xususiyatlarning insonlarda rivojlanishi etnik identiklikning ham kuchayishiga sabab bo‘ladi. Demak, qaysi shaxsda o‘z millatiga nisbatan qadr-qimmat, urf-odatlariga nisbatan hurmat hissining kuchayishi o‘zga millatlarga nisbatan munosabatni ijobjiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi.

Etnik identiklik – bu, insonning ongli mazmunli va mas’uliyatlari tanlovi bo‘lib, shaxs muayyan munosabatlarni o‘rnatishda o‘z pozitsiyasi va faoliyati orqali namoyon bo‘ladigan murakkab, ko‘p qirrali va komponentli hodisadir. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotda ishtirop etgan ilk o‘smirlik va o‘smirlik yoshidagi respondentlarda etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida, etnik madaniyat, etnik identiklik, etnik ijtimoiylashuv, va barkamollik

ko‘rinishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik darajasini o‘rganishga harakat qildik. Olingan natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilmoqda.

1-jadval
Shaxsda etnik xususiyatlarni shakllantiruvchi omillar o‘rtasidagi munosabat ko‘rsatgichlari (N=240)

Et nik xususiyatl ar darjası	Etnik xususiyatlarni shakllantiruvchi omillari					
	Etnik mada niyat	Etnik identi klik	Et nik ijtimoiy lashuv	Barkam ollik	Empa tiya	Etn ik bag‘rikeng lik
Yu gori	0,26*	0,33*	0, 09	0,18*	0,6	0,14 *
O‘r ta	0,22*	0,31*	0, 16	0,14*	0,10	0,12 *
Qu yi	0,1	0,19	0, 14	0,12	0,9	0,11

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, shaxsda etnik identiklikning yuqori darajasi bilan ($r=0,33$; $r<0,001$) yuqori darajada, etnik madaniyat bilan ($r=0,26$; $r<0,005$) hamda barkamollik indeksi ($r=0,18$; $r<0,005$) ahamiyatli darajada aloqadorlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. O‘z-o‘zidan shaxsda etnik xususiyatlarning shakllanishi va rivojlanishi ularda etnik ijtimoiylashuvni, etnik bag‘rikenglikni, barkamollikning ham kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, etnik xususiyatlar o‘rta darajada shakllanganlarda etnik madaniyat, etnik identlik bilan ($r=0,22$; $r<0,05$) va etnik ijtimoiylashuv, etnik bag‘rikenglik bilan ($r=0,16$; $r<0,05$) ahamiyatli darajadagi aloqadorlik mayjudligi kuzatildi.

Xulosa. Yuqoridagilarni psixologik jihatdan tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, shaxsda etnik xususiyatlarning rivojlanishi darajasiga ko‘ra, etnik xususiyatlarning shakllantiruvchi omillari o‘rtasida ijobiy korrelyasion munosabat kuzatiladi. Buni etnik xususiyatlar mezonlari asosida ko‘radigan bo‘lsak, etnik identiklik bilan etnik ijtimoiylashuvning shakllanmaganligi shaxsda milliy xislatlarning quyi darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida bu borada korreksion rivojlantiruvchi tadbirlarni amalga oshirish zaruratini taqazo qiladi.

Adabiyotlar

1. Бромлей Ю.В. Этнические процессы в современном мире.- М., 1987. 448 с.
2. Бучек А.А. Социально-психологические особенности формирования этнической идентичности коренных народов камчатки. // Автореф. дисс. канд. психол.наук. СПб., 2003. - 23 с.
3. G‘oziyev E.G‘. O‘zbek xalqining etnopsixologiyasi va bola tarbiyasi. /O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Т., 1993. - B.8-9.
4. Shoniyozirov K.O‘zbek xalqining shakllanishi jarayoni.T: “O‘qituvchi” 1998, 8-bet.
- 5.Karimova V.M., N.N.Shomurodova etnopsixologiya.-T., 2012.98 b.